

UO‘K: 913.1

*Juraxujayev D.D.*

*F.F.Berdikulov.*

*Mirzaliyev S.R*

*“Biologiya va geografiya” kefdasi o‘qituvchilari*

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

**JIZZAX SHAHRI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR  
ETUVCHI OMILLAR**

*Annotatsiya: Maqolada Jizzax shahrining geografik o‘rni, ijtimoiy-iqtisodiy holati va unga ta’sir etuvchi omillar haqida fikr yuritiladi.*

*Kalit so‘zlar: milliy iqtisodiyot, qulay geografik o‘rin, bozor iqtisodiyoti, sanoat tarmoqlari, demografik yuk, transport, maxsus industrial zona.*

*Juraxujaev D.D.*

*Berdikulov F.F..*

*Mirzaliyev S.R.*

*Teachers of the “Biology and Geography” department*

*Uzbek - Finnish pedagogical institute*

**FACTORS AFFECTING THE SOCIAL-ECONOMIC DEVELOPMENT  
THE CITY OF JIZZAKH**

*Abstract: The article discusses the geographical location of the city of Jizzakh, the social-economic situation and the factors affecting it.*

*Key words: national economy, convenient geographical location, market economy, industrial sectors, demographic load, transport, special industrial zone.*

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiyotini shakllanishida uni tashkil etuvchi mintaqalarining ahamiyati katta. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish, barqaror rivojlantirishga

erishish ko‘p jihatdan ana shu mintaqalarning, ya’ni mamlakatning turli ichki qismlarining salohiyat va imkoniyatlariga, faolligiga bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan hozirgi davrda ishlab chiqarishni to‘g‘ri hududiy tashkil qilish, viloyat va iqtisodiy rayonlarning yer-suv, mineral xom-ashyo, yoqilg‘i va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga muhim e’tibor qaratilmoqda. Erkin va ochiq iqtisodiyot, uning turli qatlamlarini vujudga keltirish, sog‘lom raqobat va investitsiya makonini shakllantirishdek dolzarb masalalarni hududlar xususiyatini hisobga olmasdan hal etib bo‘lmaydi. Tabiiyki, bunday sharoitda hududlarni atroflicha o‘rganish, ularning imkoniyat va muammolarini chuqur tahlil qilish, ustuvor yo‘nalishlarni to‘g‘ri aniqlashga katta ehtiyoj tug‘iladi [5].

Jizzax shahri ham ana shunday hududlar sirasiga kiradi. U o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida qator qulayliklar bilan bir qatorda ayrim cheklovchi omillarga ham ega. Biroq, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini nafaqat uning qulay omillari (imkoniyatlari), balki zaif tomonlarini kuchaytirish, muammolarini maqsadli dasturlar doirasida hal etish orqali ham amalga oshirish mumkin. Chunki, har qanday muammo uni bartaraf etish uchungina muammodir, yoki boshqacha qilib aytganda, muammo, qisqa muddatli depressiv holat, turg‘unlik navbatdagi rivojlanish, yuksalish bosqichini belgilab beradi [3].

Jizzax shahri tabiiy, iqtisodiy hamda siyosiy jihatdan qulay geografik o‘rinda joylashgan. Bu esa o‘z navbatida xo‘jalik tarmoqlarining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Shaharda ayniqsa sanoat tarmoqlarining rivojlanib borayotganligi boshqa tarmoqlarga qaraganda yuqori ko‘rsatkichlarga ega hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaharda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar oilalardagi farzandlar sonini ularning ketma-ketligini tartibga solishni, aholining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashni taqozo etadi. Statistika ma’lumotlari tahliliga ko‘ra shahar aholisi tez suratlar bilan o‘sib bormoqda [1]. Bu esa yaqin kelajakda shahardagi demografik yukning bir necha barobar ortishiga olib kelishi mumkin. Aholi sonining ortib borishi qo‘shimcha ish o‘rinlari va uy-joy bilan

bog‘liq muammolar ko‘lamining kengayishiga sabab bo‘ladi. Hududning ish bilan ta‘minlash ko‘rsatkichi esa mehnat resurslari bilan proporsional holatda emas. Ayniqsa davlat buyurtmasi va ish o‘rinlari o‘rtasidagi tafovutlar aholining oliy ma‘lumotli bo‘lsada ishsiz qolishiga sabab bo‘lmoqda. Chunki yosh mutaxassislar ishlab chiqarish jarayoni bilan integratsiyasi ham ilmiy ham amaliy jihatdan bog‘lanmagan. Natijada zamonaviy korxonalar rahbari bunday kadrlarga ehtiyoj sezmaydi. Biroq korxonalar malakali kadrlarga muxtoj. Shu sababdan mehnat yoshidagi aholi tarkibida xorijiy davlatlarga qora ishchi sifatida ishlashga ketish holatlari ko‘p kuzatilmoqda.

Transport makroiqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri, iqtisodiyotning qon tomiri, harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. U ishlab chiqarish bilan iste‘molni bog‘lab, ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta‘minlaydi.

Ta‘kidlash joizki transport sohasi, sanoat va qishloq xo‘jaligi nisbatan geografiyada kam o‘rganilayotgan yo‘nalish ekanligi bilan ajralib turadi. Vaholanki, transportsiz hech narsani tasavvur qilib bo‘lmaydi, chunki transport harakat, masofani kesib o‘tish, u yoki bu narsani tashish, jo‘natish demakdir. Iqtisodiy geografiyada transport liniyalari, yo‘l, yo‘laklar sifatida o‘zlashtirilganlik ko‘rsatkichi, hududiy mehnat taqsimotini amalga oshiruvchi, iqtisodiy rayon va ishlab chiqarish majmualarini shakllantiruvchi muhim omilidir. Qolaversa, “arzon”, “qulay”, “noqulay” tushunchalarining zaminida transport omili yotadi, transport geografik o‘rin esa iqtisodiy geografik o‘rinning asl mohiyatini aks ettiruvchi asos hisoblanadi [2].

Jizzax shahri respublikamizning boshqa viloyat markazlari hududiga nisbatan kichik hisoblanadi (100 ming km.kv). Bu esa o‘z navbatida transport tarmog‘ining shakllanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Shaharda ikkita asosiy yo‘l mavjud bo‘lib (Sh.Rashidov va I.Karimov nomli ko‘cha) bu yo‘llar shaharni deyarli qamrab oladi. Ammo ularda harakatlanayotgan avtotransport vositalari, yo‘nalishli taksilar hamda mikroavtobuslarning salmog‘i bir-biridan sezilarli

darajada farq qiladi. Xususan, Sh.Rashidov ko'chasida harakatlanuvchi avtotransport vositalari soni juda ham ko'p. Birgina shahar bo'ylab yo'lga qo'yilgan yo'nalishli avtobuslarning deyarli 90 foizi mazkur yo'l orqali harakatlanadi. Bu esa o'z navbatida tirbandlik holatlarini keltirib chiqaradi. Tirbandlikning ortib ketishi esa aholining o'z manziliga kech yetib borishiga va eng asosiysi shahar ekologik holatining yomonlashuviga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, shovqinning yuqoriligi ham aholi o'rtasida ayniqsa, qon aylanish tizimi kasalliklarining ortishiga sabab bo'ladi. I.Karimov ko'chasida esa holat aksincha tus olgan. Mazkur yo'l orqali harakatlanuvchi avtotransport vositalari birmuncha kam. Ayniqsa yo'nalish bo'ylab harakatlanuvchi mikroavtobuslar soni hududdagi ijtimoiy holatga mutanosib emas. Mavjudlarida ham doimiy tarzda yo'lovchilar soni ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu esa ushbu yo'lda doimiy qatnovchi aholi qatlami uchun qator noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Bunday tafovutga sabab bo'luvchi omillar tahlil qilinganda hududdagi aholi soni hamda muassasa va tashkilotlarning joylashuvi asosiy sabablardan biri ekanligi namoyon bo'ldi. Misol uchun Sh.Rashidov ko'chasida joylashgan deyarli barcha muassasa va tashkilotlarda aholi soni ko'pchilikni tashkil qiladi. Xususan, uchta oliy ta'lim muassasasi, boshqaruv organlari, shifoxonalar, mehmonxona hamda xizmat ko'rsatish uylari shular jumlasidandir. Ammo hozirgi kunda shahar iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan keng ko'lamlislohotlar mazkur sohaga ham alohida e'tibor qaratish lozim ekanligini talab qiladi. Ayniqsa "Jizzax" maxsus industrial zonasining barpo etilishi ishchi kuchi va "iste'molchilar" qatnovining ortishiga sabab bo'ldi. Shu sababdan mazkur hududga olib boruvchi yo'l infratuzilmasini yaxshilash hamda yo'nalishli avtotransport vositalarini ko'paytirish har jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Bizga ma'lumki aynan bir tarmoqni rivojlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishib bo'lmaydi. Shu sababdan ham hududlarni rivojlantirishda kompleks yondashish eng muhim omil hisoblanadi.

Jizzax shahri ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi shahar landshaftining o'zgarishi orqali namoyon bo'lmoqda. Ko'p qavatli uylarning qurilishi, aholiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ko'payishi hamda dam olish maskanlari aholi turmush shahroitining yaxshilanib borayotganligini ko'rsatadi. Ammo mana shunday rivojlanish jarayonida ayrim korxonalar va tashkilotlarning hamkorlikda faoliyat olib bormasligi mamlakat budjetiga, shahar manzarasiga, qolaversa uning ekologik holatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ayniqsa shaharsozlik sohasida bu boradagi bir muncha oqsoqliklar ko'zga tashlanmoqda. Shu sababdan amalga oshirilayotgan ishlarda har tomonlama puxta o'ylangan reja asosida hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish lozim.

Shaharda madaniy muassasalarning yangi tizimi, xususan, madaniyat va istirohat bog'lari, sport maydonchalari va suzish havzalari barpo etildi. Xizmat ko'rsatish va servis yangi asosda tashkil qilindi. Ammo aholi sonining ortib borishi hisobiga bunday muassasalarga bo'lgan talab ham kun sayin ortib bormoqda. Shu sababdan bugungi kunda shaharda zamonaviy sport inshootlari, suzish havzalari, sirk, zoopark va ekobog'larni aholi soniga mos ravishda barpo etish maqsadga muvofiqdir. Chunki ma'nadan va jismonan baquvvat bo'lgan inson o'z mehnat faoliyatidan hech qachon charchamaydi va yangi g'oyalar bilan jamiyat hayotiga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va uning imkoniyatlaridan keng foydalanish uchun hududni atroflicha o'rganish, uning imkoniyat va muammolarini chuqur tahlil qilish hamda ustuvor yo'nalishlarni to'g'ri aniqlash va amalga oshirish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O.L.Mukhamedov., D.D.Jurakhujayev., O.B.Shamuratova., B.K.Yusupov. Territorial Aspects Of The Development Of Geodemographic Processes In Jizzakh Region. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. 10.2020. 12-16.
2. Soliyev A.S. O'zbekiston geografiyasi. – T.: Universitet, 2014.

3. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi. –T.: Barkamol fayz media, 2018.
4. Shadieva G.M [va boshq.]. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik / Samarqand. «FAN BULOG‘I» nashriyoti, 2023.